



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGINING
BUYRUG‘I

10-fevral 2026-yil.

23-26-son

Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari
faoliyatini baholash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi “Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 377-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Baholash o‘tkaziladigan davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari xavf tahlili asosida xavf darajasi yuqori bo‘lgan ichki audit xizmatlaridan tanlab olingani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash yillik rejasi (keyingi o‘rinlarda – Yillik reja) **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Davlat budjeti siyosati departamenti (Sh. Muxamedov):

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom asosida Yillik rejaga kiritilgan davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashni amalga oshirish guruhi tomonidan amalga oshirilishini ta’minlash;

baholash boshlanishidan kamida o‘n kun oldin davlat organi va tashkilotini bu haqda xabardor qilish;

o‘tkazilgan baholash natijalaridan kelib chiqib, ichki audit xizmatlari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda ularning bajarilishi monitoringini amalga oshirish;

ichki audit xizmati tomonidan taklif va tavsiyalar bajarilmagan taqdirda, tegishli davlat organi va tashkiloti rahbariga ko‘rsatma xat yuborish, shuningdek, ushbu ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasiga taqdim etish;

davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash natijalari bo'yicha yarim yillik va yillik hisobotlarni belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish hamda hisobot yuzasidan ma'lumotlarni jamoatchilikka e'lon qilib borish choralarini ko'rsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 13-fevraldagi "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash to'g'risida"gi 23-32-sonli buyrug'i 2-ilovasining matni 2-ilovaga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

5. **Axborot xizmati va kommunikatsiyalar boshqarmasi** (R. Umarova) Yillik rejaning bir ish kuni ichida vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari A. Y. Xaydarov zimmasiga yuklansin.

Vazir



D. Kuchkarov

**Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit
xizmatlari faoliyatini baholash
YILLIK REJASI**

T/r	Davlat organi va tashkiloti nomi	Baholash o'tkazish muddati
1.	Tashqi ishlar vazirligi	24.03.2026 – 30.03.2026
2.	Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi	06.04.2026 – 10.04.2026
3.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi	20.04.2026 – 24.04.2026
4.	Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi	04.05.2026 – 08.05.2026
5.	O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi	18.05.2026 – 22.05.2026
6.	Namangan viloyati hokimligi	01.06.2026 – 05.06.2026
7.	Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi	22.06.2026 – 26.06.2026
8.	Migratsiya agentligi	06.07.2026 – 10.07.2026
9.	Andijon viloyati hokimligi	03.08.2026 – 07.08.2026
10.	Energiya samaradorligi milliy agentligi	17.08.2026 – 21.08.2026
11.	Sirdaryo viloyati hokimligi	07.09.2026 – 11.09.2026
12.	Yoshlar ishlari agentligi	21.09.2026 – 25.09.2026
13.	Toshkent viloyati hokimligi	05.10.2026 – 09.10.2026
14.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi	26.10.2026 – 30.10.2026
15.	Innovatsion rivojlanish agentligi	23.11.2026 – 27.11.2026

**“Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini
baholashni amalga oshirish
GURUHI TARKIBI**

T/r	Familiyasi, ismi va otasining ismi	Lavozimi
1	Jabborov Azamat Alijonovich	Davlat budjeti siyosati departamentining Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, <i>guruh rahbari</i>
2	Ismoilov Asqar Qurbonboyevich	Davlat budjeti siyosati departamentining Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i, <i>guruh rahbari o‘rinbosari</i>
3	Jaloliddinov Mampirjon Mahmudjon o‘g‘li	Davlat budjeti siyosati departamentining Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i
4	Raimov Abdusohid Abdug‘afforovich	Davlat budjeti siyosati departamentining Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Izoh: davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini baholashda Davlat budjeti siyosati departamentining Davlat organlarining ichki audit tuzilmalari faoliyatini rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasining boshqa xodimlari jalb qilinishi mumkin.”.